

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT ULUSH O'TISHIDAGI CHEKLOVLAR

Choriyev Xusan Rustam o'g'li

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21135895>

Mas'uliyati cheklangan jamiyatda ishtirokchining ustav fondidagi ulushi uning mulkiy huquqlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, va shu bilan birga, ulushning erkin muomalada bo'lishi jamiyatning ichki barqarorligi, ishtirokchilar manfaatlari va korporativ boshqaruvning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu sababli qonunchilikda va jamiyat ustavida ulushning boshqa shaxslarga o'tishiga nisbatan ayrim cheklovlar nazarda tutilgani ham e'tiborga molik hisoblanadi.

Bunday cheklovlarning asosiy maqsadi jamiyat ishtirokchilari tarkibining barqarorligini ta'minlash, ishtirokchilar o'rtasida shakllangan korporativ munosabatlarni saqlab qolish hamda jamiyat faoliyatiga manfaatdor bo'lmagan yoki ishonchsiz shaxslarning kirib kelishining oldini olishdan iboratdir va bu o'z navbatida qonun bilan belgilan qoyilgan hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan ham olib qaraydigan bo'lsak mas'uliyati cheklangan jamiyatlar kapital birlashmasi bo'lishi bilan bir qatorda, ishtirokchilarning shaxsiy omiliga ham ma'lum darajada bog'liq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari sifatida tavsiflanadi.

Ulush o'tishidagi eng muhim cheklovlardan biri boshqa ishtirokchilarning imtiyozli sotib olish huquqi bilan bog'liq bo'lgan masaladir va mazkur huquqqa ko'ra, jamiyat ishtirokchisi o'z ulushini uchinchi shaxsga sotishdan oldin uni avvalo jamiyatning boshqa ishtirokchilariga taklif etishi lozimdir.

Faqatgina boshqa ishtirokchilar ushbu huquqdan foydalanmagan taqdirda ulush uchinchi shaxsga o'tkazilishi mumkin, hamda ushbu mexanizm orqali jamiyat tarkibining nazoratsiz o'zgarishining oldini olishga xizmat qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bundan tashqari, jamiyat ustavida ulushning uchinchi shaxslarga o'tishini taqiqlovchi yoki cheklovchi qoidalar ham nazarda tutilishi mumkin. Masalan, ustavga muvofiq ulushni begonalashtirish uchun jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi yoki qolgan ishtirokchilarning roziligi talab qilinishi mumkin.

Bunday tartib korporativ nazoratni saqlashga xizmat qilsa-da, ayrim hollarda ishtirokchining mulkiy huquqlarini amalga oshirish imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Ulushning meros yoki huquqiy vorislik tartibida o'tishida ham ma'lum cheklovlar mavjud.

Xususan, jamiyat ustavida merosxo'r yoki huquqiy vorisning jamiyat tarkibiga kirishi boshqa ishtirokchilarning roziligiga bog'liq qilib belgilanishi mumkin. Agar bunday rozilik berilmasa, merosxo'r jamiyat ishtirokchisi sifatida tan olinmaydi va unga ulushning haqiqiy qiymati to'lanadi.

Mazkur qoida jamiyatning shaxsiy tarkibini saqlashga qaratilgan bo'lsa-da, amaliyotda merosxo'rlarning mulkiy manfaatlari bilan bog'liq nizolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Qonunchilikda ulushni garovga qo'yish masalasida ham ayrim cheklovlar mavjud.

Ishtirokchi o'z ulushini garovga qo'yishda jamiyat ustavida nazarda tutilgan talab va tartiblarga rioya qilishi lozim. Bu esa kreditorlarning manfaatlari bilan jamiyatning korporativ manfaatlari o'rtasida muvozanatni ta'minlashga qaratilgan.

Shuningdek, ulushning o'tishi davlat ro'yxatidan o'tkazish va tegishli ma'lumotlarni yuridik shaxslar reyestriga kiritish bilan bog'liq protsessual talablar bajarilganidan keyingina

to'liq huquqiy kuchga ega bo'ladi. Mazkur talablarning bajarilmasligi ulush o'tishi bilan bog'liq bitimlarning haqiqiyligi yoki uchinchi shaxslarga nisbatan kuchi masalasida nizolar yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Jamiyat foydasini taqsimlash va to'lashdagi cheklovlarining huquqiy ahamiyati:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat faoliyatining asosiy maqsadlaridan biri foyda olish va uni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlash hisoblanadi ammo jamiyatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda kreditorlar manfaatlarini himoya qilish maqsadida qonunchilikda foydani taqsimlash va to'lash jarayoniga nisbatan qator cheklovlar belgilab berilgan.

Qonunning 26-moddasiga ko'ra, jamiyat ayrim holatlarda foydani ishtirokchilar o'rtasida taqsimlash to'g'risida qaror qabul qila olmaydi ya'ni avvalambor, jamiyatning ustav kapitali to'liq shakllantirilmagan bo'lsa, foydani taqsimlashga yo'l qo'yilmaydi, ushbu qoida jamiyatning mulkiy bazasi to'liq vujudga kelishini ta'minlashga xizmat qiladi deb qarashimiz mumkin, chunki ustav kapitali jamiyat kreditorlari uchun muayyan darajadagi kafolat vazifasini bajaradi.

Shuningdek, jamiyatdan chiqayotgan ishtirokchiga tegishli ulushning haqiqiy qiymati hali to'lanmagan bo'lsa ham, foydani taqsimlash mumkin emas, va bu talab jamiyat mablag'larining ayrim ishtirokchilar foydasiga asossiz ravishda yo'naltirilishining oldini olishga qaratilgan.

Mazkur moddaning yana bir muhim jihati jamiyatning to'lovga qobiliyatligi bilan bog'liqligidadir ya'ni agar foydani taqsimlash to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan paytda jamiyat to'lovga qobiliyatsizlik belgilariga ega bo'lsa yoki bunday qaror qabul qilinishi natijasida moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga kelishi ehtimoli mavjud bo'lsa, foydani taqsimlashga ruxsat berilmaydi.

Bu norma o'z navbatida kreditorlarning huquqlarini himoya qilish hamda jamiyatning moliyaviy inqirozga uchrashining oldini olishga xizmat qiladi deb hisoblash kerak.

Bundan tashqari, qonunchilik sof aktivlar miqdoriga alohida e'tibor qaratilgan, bunda agar jamiyatning sof aktivlari qiymati ustav kapitali va zaxira fondi yig'indisidan kam bo'lsa yoki foyda taqsimlanganidan keyin ushbu ko'rsatkich belgilangan darajadan pasayib ketsa, foydani taqsimlash mumkin emas.

Mazkur talab jamiyatning iqtisodiy barqarorligini saqlash va uning moliyaviy holatini yomonlashuvdan himoya qilishga qaratilgan eng asosiy prinsiplardan hisoblanadi va bu o'z navbatida qonunchilik normalari bilan belgilab berilgan hamda shu normalar asosida tartibga solinadi.

Qonunda nafaqat foydani taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilish, balki uni amalda to'lash jarayoni ham nazorat ostiga olingan. Hatto foyda taqsimlash haqida qaror qabul qilingan bo'lsa ham, to'lov vaqtida jamiyatning moliyaviy holati yomonlashgan bo'lsa yoki u to'lovga qobiliyatsizlik holatiga tushib qolsa, foydani ishtirokchilarga berish taqiqlanadi ya'ni bu o'z nasbatida to'xtatib turilishiga asos bo'ladi.

Shunda kelib chiqib qonunchilik jamiyatning moliyaviy ahvolini ikki bosqichda — qaror qabul qilish va foydani to'lash vaqtida alohida baholashni talab etadi.

Shu bilan birga, ushbu cheklovlar doimiy xarakterga ega emas, ya'ni Qonun cheklovlarga sabab bo'lgan holatlar bartaraf etilgach, jamiyat ilgari taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilingan foydani ishtirokchilarga to'lab berishi shartligini belgilash bosqichini amalga oshiradi bu esa ishtirokchilarning mulkiy manfaatlari bilan jamiyat va kreditorlar manfaatlari o'rtasida

muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi deb hisoblasak bo'ladi ya'ni tenglik tamoyiliga asoslangan holda.

Umumiy olib qaraydigan bo'lsak foydani taqsimlash va to'lashga oid cheklovlar korporativ boshqaruv tizimining muhim elementi hisoblanishi jamiyatning moliyaviy barqarorligini saqlash, kreditorlar huquqlarini himoya qilish hamda ishtirokchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda adolat tamoyilini ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Jamiyatning moliyaviy holati bilan bog'liq cheklovlarning ulush o'tishiga ta'siri :

Mas'uliyati cheklangan jamiyatda ulushning bir shaxsdan boshqasiga o'tishi nafaqat korporativ munosabatlarning o'zgarishiga, balki jamiyatning moliyaviy holatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatishi haqida xulosa chiqarsak bo'ladi va aynan shu sababli qonunchilikda nazarda tutilgan ayrim moliyaviy cheklovlar ulush o'tishi bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, jamiyat ustav kapitalining to'liq shakllantirilmaganligi ishtirokchilarning korporativ huquqlarini amalga oshirishiga ma'lum darajada ta'sir o'tkazadi va ustav kapitali to'liq shakllantirilmagan jamiyatda ulushlarning iqtisodiy qiymatini aniq belgilash qiyinlashuviga olib kelishi mumkin, bu esa ulushni sotish, hadya qilish yoki boshqa asoslarda o'tkazish jarayonida nizolar yuzaga kelishiga sabab bo'lishi olib keladi.

Qonunchilikda jamiyatdan chiqayotgan ishtirokchining ulushi uchun haqiqiy qiymat to'lanmaguniga qadar foydani taqsimlashga yo'l qo'yilmasligi ham ulush o'tishi bilan bevosita bog'liq jarayondir va mazkur qoida, avvalo, ulushi jamiyatga o'tgan yoki jamiyatdan chiqayotgan ishtirokchining mulkiy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Chunki ulushning haqiqiy qiymatini to'lash majburiyati bajarilmasdan turib boshqa ishtirokchilarga foyda taqsimlanishi korporativ tenglik tamoyiliga zid bo'lar edi.

Bundan tashqari, jamiyatning to'lovga qobiliyatsizlik holatida bo'lishi yoki bunday holat yuzaga kelish xavfining mavjudligi ham ulush o'tishi bilan bog'liq munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi, bu holat amaliyotda ulushni sotib olayotgan shaxs jamiyatning moliyaviy holatini baholaydi.

Agar jamiyat moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan bo'lsa, bu ulushning bozor qiymatini pasaytirishi yoki bitim tuzilishini murakkablashtirishiga olib kelishi mumkin, aynan shu sababli qonunchilik jamiyat aktivlari va kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan cheklovlarni nazarda tutadi.

Sof aktivlar qiymatining ustav kapitali va zaxira fondidan kamayib ketishi ham ulush o'tishida muhim ahamiyatga ega. Chunki ulushning haqiqiy qiymati ko'p jihatdan jamiyatning moliyaviy ko'rsatkichlariga bog'liq bo'lib, sof aktivlarning kamayishi ulushning iqtisodiy qiymatini pasaytiradi hamda jamiyatdan chiqayotgan ishtirokchiga to'lanadigan kompensatsiya miqdoriga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni bu o'z navbatida pasayadi. Natijada ulushni begonalashtirish yoki meros tariqasida o'tkazish bilan bog'liq nizolar yuzaga kelishi ehtimoli ortadi.

Shunday qilib, foydani taqsimlash va to'lashga oid cheklovlar bir qarashda ulush o'tishi institutidan alohida ko'rinsa-da, aslida ular ishtirokchi ulushining iqtisodiy qiymatini aniqlash, jamiyatdan chiqayotgan ishtirokchining huquqlarini himoya qilish hamda kreditorlar manfaatlarini ta'minlash orqali ulush o'tishiga oid huquqiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlaydi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mas'uliyati cheklangan jamiyat ulushining o'tishiga oid cheklovlar bir tomondan jamiyatning korporativ barqarorligini ta'minlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan ishtirokchilarning mulkiy huquqlarini amalga oshirish doirasini belgilaydi.

Shu sababli ulush o'tishini tartibga soluvchi cheklovlar jamiyat manfaatlari va ishtirokchilarning xususiy manfaatlari o'rtasida oqilona muvozanatni ta'minlashi lozim.